

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 619 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
С.С. Исмаилов	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir.....	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish	49
Idrisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики.....	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран.....	69
Буранова Лола Вахобовна	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Hakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari.....	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Касимова Зилола Гуламиддиновна	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане	186
Шахзод Сайдуллаев	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish	192
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati.....	206
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства	214
Нурутдинова Зухра Алишеровна	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati	220
Madaminova Sanobar Askarovna	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari.....	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	234
Uzakova Umida Ruziyevna	
O'zbekistonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlari.....	241
Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li	
Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar	247
Boykabilov Bahodir Mustafayevich	



Kichik sanoat zonalari korxonalar va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv	251
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari	255
N.N.Zikrillayev	
Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari	263
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth	268
Almosova Shahnoza Sobirovna	
Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish	273
Israilov Rustam Ibragimovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
D.D. Suvanova	
Оптимизация маркетинговой деятельности вузов узбекистана для привлечения абитуриентов	283
Шамшиева Наргизахон Носирхужа кизи	
Davlat budjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari	290
Xannarov Komiljon Karimovich	
Tijorat banklarida transformatsiyalashuv jarayonlarining tahlili	296
Yoqubov Murodjon Valibekovich	
Роль инновационных инфраструктур в обеспечении конкурентоспособности промышленных предприятий	302
Каримов Хожакбар Махамаджон угли	
O'zbekiston qishloq xo'jaligida Osiyocha ishlab chiqarish usuliga asos solinishi	306
Abdulla Abduqodirov	
Kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarishda innovatsion jarayonlarni tadqiq qilish yo'llari	312
Nasrullayev Feruz Furqatovich	
Ijtimoiy-iqtisodiy adolat – barqaror rivojlanish kafolati	318
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
“Istiqlol” memhonxonasi reklama faoliyati tahlili	322
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy belgilovchi omillar	328
Xaydarov Xurshidbek Latipjonovich	
Enhancing Industrial Efficiency through Integrative Sustainability Approaches	334
Kholmukhamedova Feruza	
Современные способы получения нефтяных битумов	338
Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович	
O'zbekistonda agrobiznes orqali hududlarni rivojlantirish masalalari	342
Islomov Jamshed Davronovich	
Зарубежный опыт трансформации железнодорожной транспортной системы	347
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
Sog'liqni saqlash sohasida davlat xususiy sherikligini tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlari	351
Qurbanov Jumanazar Omonovich	
Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisob siyosatini shakllantirish	354
Uzakov Utkir Abdusattarovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	357
Gulbayeva Feruza Islamovna	



Ta'lim muassasalarida namunaviy shtat, jadvallarni tuzish tartiblarini takomillashtirish	364
Ortiqov Xamroqul Abdumajidovich, Boliyev Bahromjon Rustam o'g'li	
Mamlakatimizda turizm sohasini istiqbolda rivojlantirishga ta'sir etuvchi ekzogen omillar tahlili	369
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining masofaviy va boshqa xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish masalalari.....	378
Ortiqov Oybek Abdullayevich	
Transport infratuzilmasining xususiyatlari.....	390
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Asosiy vositalarni xalqaro standartlar asosida hisobga olish tartibi	394
Shermatov Sirojiddin Haydarovich	
Logistika jarayonlarida raqamli yechimlar.....	399
Yarashova Vasila Kamalovna, Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
To'g'ridan to'g'ri sug'urta qilish operatsiyalari bo'yicha daromadlarning hisobini takomillashtirish.....	403
Abdusaidov S.J.	
Venchur kapitali: kelib chiqish tarixi va ilg'or horijiy tajribalar.....	409
Do'stov Firuz Ilxomovich	
Анализ статистического исследования рынка паломнического туризма в республике узбекистан	414
Мустаева Шохида Саъдуллаевна	
Структурно-функциональный анализ гастрономического туризма в республике узбекистан	420
Салиева Екатерина Сергеевна	
Вопросы привлечения внешнего финансирования металлургических предприятий в узбекистане.....	427
Татьяна Будей	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning afzalliklari	431
Khusanov Nodirbek Djumanazarovich	
Innovatsion g'oyalar va yangi ilmiy ishlanmalar asosida innovatsion mahsulotlar yaratishning boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish yo'llari.....	437
Daliyev Xusan Xojakbarovich	
Macroeconomic factors in the development of the banking performance	442
Mamadiyorova Madina Nuriddin kizi, Dr.Susanti Kurniawati, X.S.Umarov	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	449
Turg'unov Muxridin Mo'ydinjon o'g'li	
Ecological sustainability and trade: economic and environmental implications of uzbekistan's accession to the WTO	453
Mironshokh Sattarov, Denny Andriana, Sirojiddin Yangiboyev	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishni o'ziga xos tendensiyalari.....	458
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning ilmiy – nazariy asoslari.....	468
Davletov Po'lat Torabayevich	
Ekoshahar tashkil etishda "yashil" belbog' hamda "yashil" makonning o'rni	476
Karimova Muqaddas Zabixullayevna	
Необходимость изучения механизма управления социально-трудовыми отношениями при переходе республики узбекистан на "зеленую" экономику.....	479
Раматов Зафарбек Жуманиязович	



Klasterlarning rivojlanish tarixi, ularning o'ziga xos xususiyatlari va raqobatbardoshlikdagi o'rni.....	482
Sherkulov Shohruh Erkin o'g'li	
Soliqlarni raqamlashtirish: QQS ning muammo va istiqbollari	486
Abdulxayeva Shahnoza Muhammadiyevna	
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida sug'oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish yo'llari.....	492
Xo'jageldiev Chorshanbi Pardayevich	
Topical issues of analytical support for financial resources management of business entities in modern conditions	498
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Исследование цифровой валюты центрального банка как новой формы денег.....	506
Якубова Шамшинур Шухратовна	
Структуризация прибыли предприятия, факторы формирования и выявление резервов её повышения.....	513
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Xorijiy mamlakatlarda oilaviy migratsiya masalalari.....	517
Kadirova Zulayho Abduhalimovna, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafvna	
Ta'limda innovatsion tadbirkorlikning tarixiy rivojlanishini asosiy bosqichlari.....	522
Madaminova Xusnidaxon Shuxratovna	
Integratsiya jarayonida bog'dorchilikda klasterlarni barpo qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va tarkibiy o'zgarishlarga ta'siri.....	526
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
Banklarning moliyaviy xavfsizligi va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri.....	532
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Qishloq xo'jaligida pillachilik biznesini rivojlantirish istiqbollarini belgilash jarayonini ekonometrik modellashtirish.....	535
Turgunov Odilbek Maripovich	
Zamonaviy pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi rolini baholash.....	542
Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich	
The unique characteristics of governance systems in various countries: a comparative analysis.....	549
Bozorboev Otamurod Nurmuxammad ugli, Denny Andriana, Usmanov Bunyod	
GREEN ECONOMY AND GREEN CHEMISTRY: principles, priorities, advantages and it's impact to the future.....	553
Fozilova Firangiza Komilovna, Zokirova Ferangiz Zafarovna	
Kichik biznesda yoshlar tadbirkorligini shakllantirish va rivojlantirishning mohiyati va ahamiyati.....	557
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari.....	562
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
Temir yo'l transportida yuk tashish samaradorligining iqtisodiy negizi tushunchasi va xususiyati.....	568
Shukurova Sultana Suidsultanovna	
Tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarining hozirgi holati va tendensiyasi.....	572
Hayitova Nigora Ilxomovna	
Mamlakat tashqi qarzini boshqarishning samarali yo'llari.....	576
Choriyev Fazliddin Ishkuvatovich	
A comparative analysis of investment risk management in the non-profit sector	583
Rakhimov Shoxrux Abduqaxxor O'g'li, Muhamad Arief Ramdhany	
Роль налога на доходы физических лиц в формировании бюджета узбекистана.....	587
Наврузова Фарогаатхон	



Принцип работы электронных денег в форме электронных кошельков в банковском секторе	592
Ширинова Шохсанам Собир кизи	
Дальнейшее повышение эффективности деятельности постов удаленного электронного декларирования путем преобразования их структуры и алгоритма взаимодействия	598
Вахидова Феруза Алимовна	
Ishbilarmonlik muhitining mohiyati hamda uni baholashning zamonaviy usullari.....	603
Majidov Faxriddin Abdurazzok o'g'li	
Davlat moliyaviy siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati	609
Jabborova Dilafruz Sodiq qizi	
Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida kichik biznes subyektlari faoliyatining ahamiyati	614
Ismoilov Narimonjon No'monjon o'g'li	



QISHLOQ XO'JALIGIDA PILLACHILIK BIZNESINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI BELGILASH JARAYONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH

Turgunov Odilbek Maripovich

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligida pillachilik biznesini rivojlantirish istiqbollarini belgilash bo'yicha matematik-statistik usullardan foydalangan holda baholash yo'llari ishlab chiqilgan. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida pillachilikni rivojlantirishning dolzarbligi va ahamiyati hamda uni ekonometrik baholash zaruriyati o'rganilgan. Pillachilik biznesini rivojlantirish istiqbollarini ekonometrik baholash bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, pillachilik, yashil biznes, iqtisodiy va texnologik aloqalar, pillachilik mahsulotlari eksporti, ekonometrik usullar, prognoz variantlar.

Abstract: In this article, methods of assessment using mathematical-statistical methods have been developed to determine prospects for the development of cocooning business in agriculture. The relevance and importance of the development of cocoons in the agricultural sector and the necessity of its econometric evaluation have been studied. Scientific-practical proposals and recommendations for econometric evaluation of the prospects for the development of cocooning business have been developed.

Key words: agriculture, cocooning, green business, economic and technological relations, export of cocooning products, econometric methods, forecast options.

Аннотация: В данной статье разработаны методы оценки с использованием математико-статистических методов определения перспектив развития коконного дела в сельском хозяйстве. Изучены актуальность и значение развития коконов в аграрном секторе и необходимость его эконометрической оценки. Разработаны научно-практические предложения и рекомендации по эконометрической оценке перспектив развития коконного бизнеса.

Ключевые слова: сельское хозяйство, коконирование, зеленый бизнес, экономико-технологические отношения, экспорт продукции коконирования, эконометрические методы, варианты прогноза.

KIRISH

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida kichik yashil biznesni rivojlantirish orqali pillachilikda ishlab chiqarish samaradorligi va uni ta'minlaydigan resurslardan maqbul foydalanish, ularni maqsadga muvofiq taqsimlanishi hamda tarmoqda raqobatli bozor muvozanatini vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pillachilik tarmog'i oldida ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish, respublikada pillachilik mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish va pillachilik mahsulotlari eksport hajmini oshirish kabi dolzarb muammolar turibdi.

Bu muammolarni hal qilishda ilmiy izlanishlarning ahamiyati yuksakdir. Olib borilgan ilmiy izlanishlarning asosiy maqsadi – innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida pillachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning hamda qishloq xo'jalik resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish, ularni raqobatli taqsimlash bo'yicha takliflar ishlab chiqishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pillachilik biznesi qishloq xo'jaligi sektorining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ushbu biznesning istiqbollarini belgilash va rivojlanishini bashorat qilishda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanish keng tarqalgan.

S. Karimov va M. Abdurahmonov o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda pillachilik sanoatining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rgangan va ushbu jarayonni modellashtirish usullarini ko'rib chiqqanlar. Ular ekonometrik modellar yordamida pillachilikda mahsulot hajmini prognoz qilish va bu jarayonga ta'sir qiluvchi iqtisodiy omillarni baholash bo'yicha o'z tadqiqotlarini keltirib o'tganlar.



A. Sharipov tadqiqotida O'zbekiston sharoitida pillachilik ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini baholash usullari va istiqbollari aniqlashga e'tibor qaratgan. U o'z tadqiqotida ekonometrik modellashtirish orqali turli iqtisodiy sharoitlarning pillachilikka ta'sirini tahlil qilgan va bu jarayonda davlat siyosatining ahamiyatini ta'kidlagan.

V. Ivanov va A. Petrov MDH davlatlarida, jumladan, Rossiyada pillachilik sanoatining rivojlanish tendensiyalari va ularni modellashtirish bo'yicha izlanishlar olib borgan. Ularning tadqiqotlari ekonometrik modellarni qo'llash orqali sanoatning o'sish sur'atlarini baholash va istiqbollarni aniqlash bo'yicha samarali usullarni tavsiya qiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar pillachilik biznesini rivojlantirishda ekonometrik modellashtirishning o'rnini va ahamiyatini yoritib beradi. Shuningdek, iqtisodiy sharoitlar va davlat siyosatining ushbu jarayonga ta'sirini baholash imkonini beradi. Adabiyotlarda keltirilgan tadqiqotlar natijalari pillachilik sanoatini rivojlantirishda samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Pillachilik biznesini rivojlantirishda ekonometrik modellashtirishning o'rnini va ahamiyatini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor munosabatlarining muhim xususiyatlaridan biri tovar ishlab chiqarish va uni sifatini oshirib borish nisbatini saqlab turish hisoblanadi. Bunday sharoitda yakuniy mahsulot ishlab chiqarish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, bozor mahsulotga bo'lgan talabni aniqlaydi va u, o'z navbatida, mahsulot sifatiga yuqori talablar qo'yadi. Ammo ushbu tarmoqda xo'jalikni bozor usullari asosida yuritishga o'tish og'ir kechmoqda, bu, avvalambor, uzoq yillar pillachilikni rivojlantirish choralari bo'yicha yuzaga kelgan iqtisodiy va texnologik aloqalarning uzilishi bilan bog'liq, ko'p korxonalar iste'mol mollarni ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun yuqori intellektual va texnik salohiyatga ega, ammo mavjud quvvatlarni ish bilan ta'minlash uchun moddiy resurslar yetishmaydi.

Yuqoridagi muammolarni hal etish maqsadida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev rahnamoligida pillachilik tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb etish, qo'shma korxonalar tuzish va yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil qilish bo'yicha keng dasturiy tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tahlillar ko'rsatishicha, pillachilik oldida turgan iqtisodiy, texnologik va tashqiliy-hududiy muammolarni hal etishga xalaqit beruvchi asosiy omillar quyidagilardir:

zamonaviy bozor strategiyasi haqida kerakli bilimlarga ega bo'lgan asosiy boshqaruv va texnik muhandislik mutaxassisliklari yetishmasligi;

ushbu tarmoqlar korxonalari ishlab chiqargan mahsulotlarning raqobatdoshligining pastligi va boshqalar.

Shuningdek, kichik yashil biznesni rivojlantirish va samarali boshqarishda hamda uning yutuqlarini amaliyotda qo'llashda muhim kamchiliklar mavjud: pillachilik tarmoqlarida mablag'larning noto'g'ri taqsimlanishi oqibatida bozor munosabatlariga o'tishdagi yangi sharoitlarda uning ishlab chiqarish muammolariga olimlarning e'tibori ma'lum darajada susaygan; olim va konstruktorlarning ilmiy-texnika taraqqiyoti sohasidagi yutuqlarini qo'llashdagi mehnati kam rag'batlantiriladi. Olimlarning kichik yashil biznesni rivojlantirish orqali pillachilik tarmoqlarida bozor munosabatlarini takomillashtirish, korxonalarda yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha bir qator muhim nazariy va amaliy masalalar bo'yicha takliflarni hisobga olish zarur.

Iqtisodiyotda resurslar chegaralangan sharoitda pilla mahsulotlarining bozordagi talab va taklif nisbati o'zgarishini bashorat qilish hamda iqtisodiy o'sish muqobil variantlarini tanlash imkoniyatlarini yaratish muhim o'rin tutadi.

Pillachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish tadbirlarini ishlab chiqishda iqtisodiy-matematik modellardan foydalanish talab va qoidalarini ishlab chiqish kichik yashil biznesni rivojlantirish strategiyasini belgilab berishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kichik yashil biznes tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga bo'lgan talab va taklif nisbatlari o'zgarishini tadqiq etishning nazariy asoslarini ishlab chiqish uchun ishonchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy-matematik modellar tizimidan foydalanishning bir necha sabablari bor. Birinchidan, pillachilik tarmog'ida ishlab chiqarish, almashtirish va taqsimlashning tartiblashtirish mexanizmi makrodarajadagi jarayonlarning avtonom yechimlari va natijalari majmui sifatida tavsiflanadi. Aynan shunday jarayonlarni rivojlan-




tirishda va undagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni muvozanatlashtirishda makroiqtisodiy modellardan foydalaniladi. Faqat shu ko'rinishdagi modellar asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orasidagi munosabatlar, iqtisodiy jarayonlar o'rtasida analitik tavsifga ega bo'lgan o'zaro bog'likliklar hamda ularning son qiymatlarini aniqlashdagi imkoniyatlar o'rganiladi. Ikkinchidan, ilmiy asoslangan modellar tizimidan foydalanish pillachilik tarmog'i rivojlanishini bashorat qilish va tahlil qilishda qulaylik yaratadi. Ekonometrik usullar, nafaqat asosiy prognoz variantlarini olishni, balki ko'zda tutilgan iqtisodiy o'zgarishlar natijasida tashqi ta'sir qiluvchi (egzogen) parametrlarning prognoz qilingandan keyingi variantlari to'plamini modellashtirishga ham qulaylik yaratadi. Modellar tizimidan bu tariqa foydalanish tarmoqning rivojlanish variantlari natijalarini aniqlashga imkon beradi hamda shu bilan bir vaqtda tadqiq qilinayotgan muvozanatlashtirishni va boshlashni ta'minlaydi.

Uchinchidan, ekonometrik usullar har qanday tarkibiy va dinamik o'zgarishlarni aks ettiradi. Bu esa bashorat qilish vaqtida milliy iqtisodiyotdagi muhim ko'rsatkichlarning asosiy nisbatlari va muvozanatini ta'minlashni oshirishda qulaylik yaratadi, maqsadga muvofiq iqtisodiy tadbirlar o'tkazishda qarorlar ishlab chiqish jarayoni zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Qaror qabul qilishning nazariy shart-sharoitlarini, tamoyillarini va modellarini ishlab chiqish bozor talabini real aniqlashda, shuningdek, bu talabni ta'minlash jarayonida ishlab chiqarish hajmini bashorat qilish imkoniyatlarini yuzaga keltirishda muhim hisoblanadi.

Pilla ishlab chiqarishni rivojlantirishda qaror qabul qilish jarayoni har xil hisoblash variantlarini qiyosiy tahlil qilish orqali taqqoslashni ko'zlaydi (1-rasm). Buning uchun, birinchidan, pilla ishlab chiqarishning mumkin bo'lgan variantlari to'plamini ishlab chiqish, ikkinchidan, eng maqbul yechimning tanlash mexanizmini tavsiflash zarur. Shuning uchun qaror qabul qilish jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan boshqariladigan parametrlarni ajratish va ularning har birini o'zgarish sohasini aniqlash zarur. Bu modellar va axborot tizimini yaratish hamda ekonometrik modelni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi.



1-rasm. Pilla ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha samarali qaror qabul qilish tizimi.

Bunda:

- 1 - bozor talabi jarayonining tavsifi axborot bazasi;
- 2 - pillachilik tarmog'i rivojlanishini bashorat qilish;
- 3 - biznes-reja tuzish;
- 4 - yechimning maqbul variantini tanlash;
- 5 - samarali faoliyat ko'rsatishda yuzaga keladigan risklarni baholash va bartaraf etish yo'llarini tahlil qilish;
- 6 - qaror qabul qilish yechimlar bazasini yaratish.

Ushbu bloklarda bozorning pilla mahsulotlariga bo'lgan talabini aniqlashda qaror qabul qilish jarayonining tavsifi keltiriladi. Shu maqsadda yechim uchun zarur ma'lumotlarni ta'minlovchi axborot bazasi yaratiladi. Funktsional masalalarni yechish uchun bashorat qilish va biznes-reja tuzish bloklari ifodalangan. Bu blokda maqsadga muvofiq holda qaror qabul qilish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar tayyorlanadi. Yechimning maqbul variantini tanlash blokida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar tahlil qilinadi va bundan kelib chiqqan holda zaruriy boshqarish qarorlari ishlab chiqiladi.

Mahsulot ishlab chiqarishning maqbul variantini tanlash jarayoni bozorda mahsulotga bo'lgan talab ko'rsatkichlarining baholash omillari to'plamiga bog'liq.

Ma'lumki, O'zbekiston pilla mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Shuning uchun pillachilik tarmog'i mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash tarmog'i rivojlanishini boshqarishning uslubiy tamoyillarini amalga oshirish iqtisodiy o'sishning asosiy omili hisoblanadi. Pillachilik



mahsulotlari ishlab chiqarish va samaradorligini oshirishda tarmoqning hozirgi holatini yagona ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida baholashdan boshlanadi.

Pillachilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini yakuniy natijalar nuqtayi nazardan obyektiv baholash ham uni kompleks tarzda ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bu agrasanoat integratsiyasini yanada rivojlantirish, ya'ni qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni qayta ishlash bo'yicha o'zaro aloqador hamma tarmoqlarni yagona boshqarish obyektiga birlashtirish zaruriyatidan dalolat beradi.

Modellar tizimini ko'rish va ulardan foydalanish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, pillachilikdagi real iqtisodiy munosabatlarni mutanosib ravishda tasvirlash murakkab jarayon hisoblanadi.

Modellar tizimini ishlab chiqishning bir nechta bosqichida ekspert tomonidan e'tiborga olingan asosiy o'zgaruvchi parametrlarning qiymatlarini o'zgartirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Modellar tizimida iqtisodiy o'sishning asosiy tenglamalari sifatida pillachilik mahsulotlarining ishlab chiqarish funksiyalari majmui, ishlab chiqarish funksiyalarining parametrlari sifatida esa qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi resurslar va omillarni tavsiflovchi koeffitsiyentlar qaraladi.

Modelning dastlabki bloklar majmui pillachilik tarmog'ida mahsulotlar ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni tavsiflovchi tenglamalar sistemasidan iborat. Ushbu blok ishlab chiqarish funksiyalari va tenglamalar majmuidan tashkil topgan.

Modellar orasidagi asosiy bog'liqliklar quyidagi endogen (chiqariladigan) o'zgaruvchilarning tenglamalar tizimini tashkil etadi: davlat iste'moli, xususiy iste'mol, pillachilik tarmog'i jamg'armasi, sof eksport va resurslar hajmi. Kiritiladigan parametrlar tizimi modelda tayyorlangan mahsulot taqsimlanishini, chegaralangan resurslar bilan ta'minlashni e'tiborga olgan holda modellashtiriladigan ishlab chiqarish jarayonini bog'lashga imkon beradi. Bunda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalaniladi. Modellar ishlab chiqishda ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni tahlil qilish bo'yicha tajribaga ega bo'lgan malakali mutaxassislar jalb qilinadi. O'zgarishlar bir nechta parametrlarni o'zgartirish hamda ma'lumotlarni almashtirish vositasida bartaraf etiladi. Shunday qilib, imitatsiya sifat va miqdoriy jihatdan shakllanadi. Ekonometrik modellarning ekspert baholari model yechimlarini olish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu maqsadda respublikada pillachilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi tahlil qilindi. Talabni inobatga olgan holda pilla mahsulotlari dinamikasini aniqlovchi omillar quyidagilar hisoblanadi: pilla mahsulotlari iste'moli, davlat iste'moli, pillachilik jamg'armasi va sof eksport. Taklifni inobatga olgan holda pilla mahsulotlari dinamikasini aniqlovchi omillar sifatida esa qishloq xo'jaligining iqtisodiy ko'rsatkichlari (tutuzor maydoni, pilla qurti hajmi, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va infratuzilma sohasi va boshqalar) olinadi. Pillachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish choralari nisbati o'zgarishi tatbiq qilinadi. Olingan natijalardan analitik va prognoz hisoblarini olib borishda foydalanish mumkin.

Umumiy muvozanatlashtirishning modellar tizimi ishlab chiqarish, iste'mol, eksport, import va savdo balansi kabi real va nominal ko'rsatkichlarni tavsiflovchi tenglamalar tizimi ko'rinishida beriladi. Modelda ishlab chiqaruvchi, iste'molchi va tashqi davlatlarning o'zaro iqtisodiy aloqasi inobatga olinadi.

Muvozanatlashtirish tenglamalari, ayniyatlari va muvozanat shartlaridan tashkil topgan quyidagi modellar tizimi taklif etiladi.

Tenglamalar:

- pillachilik mahsulotlari ishlab chiqarish taklifi:

$$M_x = (K_t, B_d^t, Sh_{iN}, D_{iG}, E, T_{i,t}^s, I, D^D) \quad (1)$$

- tovar ishlab chiqarishining taklifi (ichki va import tovarlardan iborat):

$$T_t = A_2 [6_2 M^2 + (1-6_2) (D^s)^2]^{1/p} \quad (2)$$

bu yerda

$a = 1 / 1-p$; $-\infty \leq p \leq +1$, $a = 1 / p - 1$; $1 \leq r \leq +\infty$ bo'lib a – eksport almashuvi egiluvchanligi;

- talab: $T = F(X, I, A_{dN}, A_{sN}) \quad (3)$

- import: $I = F(M_x, I_{t.n.}, I_{t.n.i.}) \quad (4)$

- eksportga talab: $E^d = g_1(E_{t.n.t.}, I_{t.i.i.}; P_z) \quad (5)$

- eksportga taklif: $E^s = g_2(E_n, E_{t.n.t.}, M_x, I) \quad (6)$

- inflyatsiya: $I_i = f_1(IPC, A_s, P_m) \quad (7)$

Ayniyatlar:

- tovarlar majmuasiga talab: $Q^D = D_{i.N} + I_x + I_{jG} \quad (8)$

- sof eksport: $E_v = E_t M_x \quad (9)$

- iste'mol: $C_t = (1 - Sh_{i,t} - e_t) M_x \quad (10)$

- import tovarlarning ichki bahosi: $I_{t.n.i.} (1 + I_t) A_k * I_{t.n.t.} \quad (11)$



Hisoblanadigan tengliklar:

$$M_b \cdot X = E_n \cdot E + T_n \cdot D^s$$

$$T_b \cdot T_s = I_{t.n.i.} \cdot I + M_n \cdot D^D \quad (12)$$

Muvozanat shartlari:

$$D^D - D^S = 0$$

$$Q^S - Q^D = 0$$

$$M_n \cdot I_x - I_j = 0$$

$$-d_1 J - d_2 \text{Shi}_{iN} - d_3 D_{iG} + E = S_{e,t}$$

$$-J - \text{Shi}_{iN} + \text{Shi}_{iN} / dD_{iG} - D_{iG} = C_{e,t} \quad (13)$$

$$b / \text{Shi}_{iN} (1-d_1) J + b / \text{Shi}_{iN} (1-d_2) \text{Shi}_{iN} + b / \text{Shi}_{iN} (1-d_3) D_{iG} + b / \text{Shi}_{iN} E = ET$$

$$m / \text{Shi}_{iN} (1-d_1) J + m / \text{Shi}_{iN} (1-d_2) \text{Shi}_{iN} + m / \text{Shi}_{iN} (1-d_3) D_{iG} + m / \text{Shi}_{iN} E = R_x$$

Bu yerda:

M_x - pillachilik mahsulotlari hajmi;

K_t - asosiy kapital jamg'armasi;

B_d - bandlik darajasi;

Shi_{iN} - shaxsiy iste'mol;

D_{iG} - davlat iste'moli;

E - eksport;

$T_{i.t.}$ - ichki tovarlar taklifi;

I - import tovarlar;

T_t - tovarlar majmuasi taklifi;

T - talab;

A_d - aholining pullik daromadi;

A_s - aholi soni;

$I_{t.n.t.}$ - import tovarlarning jahon bozorida narxi;

$I_{t.n.i.}$ - import tovarlarning ichki bozordagi narxi;

$E_{t.n.t.}$ - eksport tovarlarning jahon bozorida narxi;

$I_{t.i.i.}$ - import qiluvchi davlatlardagi ichki baho indeksi;

P_e - pilla mahsulotlarining eksportdagi ulushi; E_n - eksport tovarlarning ichki bahosi;

I_x - investitsiya hajmi;

I_j - pillachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda jamg'armaning ulushi;

E_t - pillachilik mahsulotlarining ishlab chiqarishda sof eksport ulushi;

I_t - import tovarlar tarifi;

A_k - almashtirish kursi;

E_t - eksport tovarlar tarifi;

M_b - mahsulotlar majmuasining bahosi;

T_n - ishlab chiqarilgan ichki tovarlar narxi;

T_b - tovarlar majmuasining narxi;

M_n - ichki mahsulotning sotilish narxi;

J - agrar sektorda jamg'arma;

R_x - chegaralangan resurslar hajmi;

S_e - sof eksport;

I_n - investitsiyalash normasi;

dD_{iG} - pillachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda davlat ehtiyoji ulushi;

d_1 - import tovarlardan olinadigan daromad ulushi;

d_2 - importdagi shaxsiy ehtiyojlar ulushi;

d_3 - importdagi davlat ehtiyoji ulushi;



b - bir birlik pillachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda issiqlik energiyasi resurslariga ehtiyoj;

m - bir birlik pillachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda chegaralangan resurslarga ehtiyoj;

I_i - iste'mol qiymati indeksi;

P_m - pul massasi.

Axborot nuqtayi nazardan qaraganda modellar tizimini qo'llash yagona ma'lumotlar banki va unga mos ekonometrik model tizimini ishlab chiqishda o'ziga xos talablar qo'yadi. Bunda ekonometrik model alohida modelda qo'llanilganidek, modellar tizimida ham ekspert almashuvi imkoniyatlarini hisobga olgan holda qo'llanishiga imkoniyat yaratadi.

Modellar tizimining tuzilishi undagi modellarni, tartiblovchi parametrlarning mezoni qiymatlarini maksimal-lashtirishga yoki minimallashtirishga imkon beruvchi optimizatsion statistik modellarga almashtirishga qulaylik yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Keltirilgan modellar tizimini to'la qo'llash milliy iqtisodiyotimiz pillachilik tarmog'idagi quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashga imkoniyat yaratadi:

- pillachilik tarmog'ida moddiy ishlab chiqarishning zarur o'sish darajasini ta'minlash uchun ishlab chiqarish doirasida kerak bo'ladigan minimal investitsiya hajmi;

- pillachilik tarmog'ida moddiy va moliyaviy resurslarni taqsimlashning eng maqbul tarkibi;

- investitsiya va bandlik chegaralanganda aholining jon boshiga to'g'ri keladigan shaxsiy ehtiyojlarini to'la qondirish uchun ishlab chiqarish samaradorligi darajasi.

Pillachilik tarmoqlarida iqtisodiy islohotlar jarayonini va bozor munosabatlarini ilmiy tahlil qilish bir qator muhim masalalar bo'yicha umumiy fikrlarga kelishga va quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi:

1. Iqtisodiy islohotlarda asosiy e'tiborni bevosita korxonalariga qaratish va ularda bozor munosabatlari mexanizmini qo'llash, ushbu maqsadda "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tizimidagi yetakchi mutaxassis va olimlardan sohaviy ekspertlar guruhlarini tuzish va ular zimmasiga quyidagi masala bo'yicha takliflar ishlab chiqish: jahon standartlariga mos keladigan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha har bir kichik yashil biznes subyektlarining bozor strategiyasini asoslash va ushbu asosda kerakli xomashyo, texnika, texnologiya va mablag'ning qo'shimcha manbalarini aniqlash.

2. Mehnat bozori tuzilishi va kichik yashil biznesda mehnat faoliyatini (pillachilar) olib borayotgan barcha ishchilarga talablarning oshishi munosabati bilan korxonalar rahbarlarining e'tiborini quyidagiga qaratish kerak: ish haqi tizimini ko'rib chiqish, uning xodim manfaati va qo'shgan mehnat hissasiga mos keluvchi variantlarni qo'llash.

3. Pillachilik korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish maqsadida moliyaviy faoliyatini tahlil qilish va daromadni oshirish, unumsiz xarajatlarni qisqartirish yo'li bilan erkin tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi texnika va texnologiya hamda mehnatning bozor uslublarini o'zlashtirish yo'llarini aniqlash.

Qishloq xo'jaligida pillachilik biznes subyektlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan choralar pilla ishlab chiqarishni rivojlantirishni muvofiqlashtirishda, samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda va pillachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish manbalarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pillachilik biznesi qishloq xo'jaligi sektorining strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada pillachilik biznesini rivojlantirish istiqbollari belgilash jarayonini ekonometrik modellashtirish asosida tahlil qilishga harakat qilindi. Adabiyotlar sharhida ko'rsatilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ekonometrik modellar pillachilik sanoatining kelajakdagi rivojlanishini bashorat qilishda va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashda muhim vosita hisoblanadi.

O'zbekistonda va MDH davlatlarida olib borilgan tadqiqotlar pillachilikni rivojlantirish uchun turli iqtisodiy va ijtimoiy omillarni chuqur o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Ekonometrik modellashtirish orqali ushbu omillarning ta'siri baholanadi va tarmoqning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari aniq belgilanadi. Shu bilan birga, davlat siyosatining ahamiyati va uni optimallashtirish yo'llari ham muhim o'rin tutadi.

Mazkur tadqiqotlar va adabiyotlar asosida pillachilik sanoatini yanada rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish mumkin. Shuningdek, bu jarayonlar tarmoqning barqaror o'sishini ta'minlash va milliy iqtisodiyotga ijobiy hissa qo'shish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov S., & Abdurahmonov, M. O'zbekistonda Pillachilik Sanoatining Rivojlanishi va Uni Modellashtirish. Toshkent: Fan va Texnologiya Nashriyoti.



2. Sharipov A. Pillachilik Ishlab Chiqarishining Iqtisodiy Samaradorligini Baholash va Uni Rivojlantirish Istiqbollari. O'zbekiston Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnal, 32(4), 89-102.
3. Иванов В. и Петров А. (2017). Тенденции развития и моделирование индустрии какао. Российский журнал сельскохозяйственных наук, 29(3), 145-158.
4. Turgunov O.M. Qishloq xo'jaligida pillachilik biznesini rivojlantirish sharoitlari va imkoniyatlardan samarali foydalanish tahlili. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2024 yil, №5. – 848 b.
5. O'roqov Sh. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pillachilik tarmog'i rivojlanish istibollarini belgilash. i.f.n.diss. – T., 2005. – 14 b.
6. Turgunov O.M. Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2024 yil, №7. – 37 b.
7. Borisov A.B. Bolshoy ekonomicheskiy slovar. – M.: Knijniy mir, 2000. – s. 185.

Internet materiallari

1. <https://www.uzbekpaksanoat.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2020–2023-yil statistik byulletini. lex.uz/docs/-6391176

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

